



TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2023

PHILOLOGICAL SCIENCES

PEDAGOGICAL SCIENCES

SOCIAL SCIENCES AND
HUMANITIES

EXACT SCIENCES

NATURAL SCIENCES

ECONOMICS

ART AND CULTURE

MEDICAL SCIENCES

TECHNICAL SCIENCES



VOLUME 1



+998 97 277 78 01



WWW.REANDPUB.UZ



INFO@REANDPUB.UZ



CYBERLENINKA



BASE



OpenAIRE



Google Scholar



«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

1-SON, 1-JILD YANVAR 2023 1-QISM

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

TA'LIM FIDOYILARI RESPUBLIKA JURNALIDA
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNOVATSION
YONDASHUVLAR MUAMMO VA YECHIMLAR MAVZUSIDA
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI





EDITOR IN CHIEF

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

PREPARING FOR PUBLISHING

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

NASHRGA TAYYORLOVCHI

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim

Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Максудова Фируза Хуршидовна

Тошкент фармацевтика институтининг «Дори воситаларининг саноат технологияси» кафедраси мудири

Кожикбаева Зияда Адилбаевна

Қорақалпоқ давлат университетининг Журналистика кафедраси доценти

Аллабергганова Гулчехра Машариповна

Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университетининг "Умумий физика" кафедраси доценти

Shamshiyeva Hulkar

Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedras, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dosenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedras, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedras, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Мирзабдуллаева Гулнора Мухаммаджон кизи

Наманган мухандислик-қурилиш институти менежмент кафедраси ассистенти

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov

Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Baratova Maxbuba Mubinjanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Даулетмуратова Замира Уснатдиновна

Қорақалпоқ давлат университетининг Қорақалпоқ тилшунослиги кафедрасининг ассистент-ўқитувчиси

Шокирова Ҳавасхон Нурмастановна

Фарғона халқ таълими бошқармаси Таълим маркази директори

Erkabay Yu. Dardibaev

Тошкент давлат аграр университети, Дехкончилик ва мелиорация кафедраси профессори

Saidova Markhabo Xabibullo kizi

DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMIC SCIENCES

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Қодилов Зиёидин Мамадалиевич

Андижон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси

Алимжон Тожиёв Мўйдинович

Андижон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти

Тожибоева Гулҳумор Раҳмонжоновна

Андижон давлат университети умумий психология кафедраси катта ўқитувчи

Юнусова Гулшод Назиховна

Наманган давлат университетининг «Амалий математика ва ахборотлартехнологиялари» кафедраси катта ўқитувчиси

Ergashev Bobirjon Boxodirovich

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich

PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Набиева Саидахон Абдувахобовна

Тошкент давлат техника университети Саноат иктисодиёти ва менежменти кафедраси доценти (PhD)



MOLIYAVIY AKTIVLARNI IQTISODIY MAZMUNIGA KO'RA TASNIFLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, O'zbekiston.

Pochta: xulugbek1984@gmail.com ORCID: 0000-0002-3589-373X

Annotatsiya: Moliyaviy aktivlarning nazariy asoslaridan biri bu ularning to'g'ri tasniflanishidir. Chunki, aktivlarni to'g'ri tavsiflanishi hisob va tahlil ishlari uchun o'ta muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Moliyaviy aktiv, daromad, pul mablag'lari, moliyaviy instrumentlar.

Аннотация: Одной из теоретических основ финансовых активов является их правильная классификация. Потому что правильное описание активов очень важно для учета и анализа.

Ключевые слова: Финансовый актив, доход, денежные средства, финансовые инструменты.

Abstract: One of the theoretical foundations of financial assets is their correct classification. Because the correct description of assets is very important for accounting and analysis.

Key words: Financial asset, income, funds, financial instruments.

Moliyaviy aktivlarning nazariy asoslaridan biri bu ularning iqtisodiy mazmuniga muvofiq ravishda to'g'ri tasniflanishidir. Chunki, aktivlarni to'g'ri tavsiflanishi hisob va tahlil ishlari uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Xorijlik va respublikamiz olimlari bu borada ham salmoqli ishlarni amalga oshirganlar.

Soha olimi B.Bo'ronov o'z ilmiy tadqiqot ishida moliyaviy aktivlarni juda chuqur va keng ko'lamda tasnif va tavsif qilgan. Bizning qarashimizcha bu borada qilingan ish o'z ahamiyati bilan e'tirofga sazovordir. Ilmiy tadqiqot ishimiz natijalariga ko'ra moliyaviy aktivlarni ba'zi bir jihatlaridan kelib chiqib yangi mezonlar asosida amaldagi tasnifini yanada takomillashtirish mumkin degan xulosaga keldik. Bu boradagi fikrlarimizni quyidagicha bayon etamiz.



Korxonalarda aktivga, shuningdek moliyaviy aktivga ega bo'lish, faqat unga egalik qilish bilan belgilanmaydi. Balki asosiy maqsad undan muayyan naf olishga qaratiladi. Naf esa daromad, qo'llab-quvvatlash, nazorat qilish, boshqarish maqsadlarida bo'lishi mumkin.

1. Daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlar ikki turga bo'linadi:

A) daromad keltirishi mumkin bo'lgan moliyaviy aktivlar. Bu holatda daromad kutilayotgan moliyaviy aktivlar daromad keltirmasligi ehtimolligi mavjud bo'ladi. Misol uchun sotib olingan oddiy aktsiya. Bu aktsiyaga dividend aktsioner kompaniyasini moliyaviy natijalariga bog'liq bo'ladi;

B) qat'iy belgilangan daromadni keltiradigan moliyaviy aktivlar. Imtiyozli aktsiyalar, oligatsiyalar, depozitlar va shu kabilar.

2. Qo'llab-quvvatlash (nazorat) maqsadida ushlab turilgan moliyaviy aktivlar:

Korxonalar moliyaviy aktivlarni faqat daromad olish maqsadidan kelib chiqib ushlab turmaydilar. Balki, o'z faoliyatlariga bog'liq bo'lgan hamkorlikdagi korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun ham moliyaviy aktiv shaklida mablag'larni yo'naltiradilar. Misol uchun, meva sotib olib qayta sotuvchi korxonalar o'z hamkori bo'lgan yashik ishlab chiqaruvchi korxonalarni uzoq yoki qisqa muddatli qarzlar berib ularning faoliyatini bir ma'romda borishiga ko'mak beradilar. Bu erda qarz berishdan asosiy maqsad imkon qadar yuqori daromad olish emas, balki yashik ishlab chiqaruvchi korxonani faoliyatini yurgizishdir.

3. Boshqarish maqsadida ushlab turiladigan moliyaviy aktivlar. Boshqa korxonalarning katta salmoqdagi aktsiyalarini sotib olib, ularning faoliyatini o'z maqsadi yo'lida olib borishga qaratilgan bo'ladi. Bunda ikki hil maqsad ko'zga tashlanadi:

A) yuqori daromad olish uchun boshqa korxona faoliyatini boshqarish;

B) raqobat zarurati yuzasida muayyan korxonani boshqarish. Bunda daromad ustun ahamiyatga ega bo'lmaydi. Meva sharbati quyadigan korxonalar doimo qadoqlash idishini ishlab chiqaradigan korxonalarni o'z manfaatlari yo'lida ishlatishga urinadilar. Bu bilan raqobatchilarga idish olish imkoniyatini bermaslikka harakat qiladi. Chunki, qadoqlash idishlarining ekologik afzalligi, dizayini, qulayligi va arzonligi, miqdorin etarli bo'lishi raqobatchilar orasida juda ham muhimdir. Moliyaviy aktivni shu maqsadda yo'naltirilish idish qadoqlovchi korxonalarni raqobat talabidan kelib chiqib boshqarish bo'ladi.

Biz tomonimizdan taklif qilingan tasnifiy belgilar korxonalarda moliyaviy aktivlarga kutilayotgan naf nuqtaiy nazardan yondashish bo'yicha moliyaviy aktivlar hisobi va tahlilini tashkil etish hamda yuritish uchun asos bo'lishi bilan muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Moliyaviy aktivlarning nazariy tomonlaridan bir bu ularning turlari hamda moliyaviy aktivlarni hisobotlarda aks ettirish masalasidir. Bu borada ham milliy hisob tizimida



kamchiliklar, etishmovchiliklar va takomillashtirilishi kerak bo'lgan jihatlar majud. Moliyaviy aktivlarning turlariga ikki nuqtaiy nazardan yondashish mumkin.

1. Alohida aktiv turi taribida, ya'ni xususiy holda. Bunda har bir aktiv o'z nomi bilan qayd etiladi.

2. Buxgalteriya hisobi talablari asosida. Ya'ni, analitik tarzda, schyotlar bo'yicha va moliyaviy hisobot tartibida.

Moliyaviy aktivlar – korxona egaligidagi mulk turi hisoblangan moliyaviy resurslardir. Milliy hisob tizimida ular tarkibi:

pul mablag'lari;

debitorlik majburiyatlari;

uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar

kelgusi davr xarajatlari hamda muddati kechiktirilgan xarajatlardan iborat.

“Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni taqdim etish” nomli 32-son BHXS (IAS) da moliyaviy aktiv turlari bo'yicha quyidagi tartib berilgan.

Moliyaviy aktiv – shunday aktivki, bunda u:

(a) pul mablag'idir;

(b) boshqa tadbirkorlik sub'ekting ulushli instrumentidir;

(v) quyidagilar bo'yicha shartnomaviy huquqdir:

(i) boshqa tadbirkorlik sub'ektdan pul mablag'i yoki boshqa moliyaviy aktivni olish;

(ii) tadbirkorlik sub'ekti uchun potentsial qulay bo'lgan shartlarda boshqa tadbirkorlik sub'ekti bilan moliyaviy aktivlarni yoki moliyaviy majburiyatlarni ayirboshlash;

(g) tadbirkorlik sub'ekting o'z ulushli instrumentlari bilan hisob-kitob qilinadigan yoki qilinishi mumkin bo'lgan shartnoma:

(i) shunday noderivativdirki, bunda u bo'yicha tadbirkorlik sub'ekting o'z ulushli instrumentlarining o'zgaruvchan miqdorini qabul qilish majburiyati yuklatiladi yoki yuklatilishi mumkin;

(ii) derivativdir, qaysiki tadbirkorlik sub'ekting o'z ulushli instrumentlarining qat'iy belgilangan miqdoriga qat'iy belgilangan pul mablag'lari summasini yoki boshqa moliyaviy aktivni ayirboshlashdan tashqari boshqa usulda hisob-kitob qilinadi yoki qilinishi



mumkin. Ushbu maqsad uchun, tadbirkorlik sub'ektining o'z ulushli instrumentlari 16A va 16B-bandlarga muvofiq ulushli instrumentlar sifatida tasniflangan qayta sotiladigan moliyaviy instrumentlarini, faqat likvidatsiya jarayonida tadbirkorlik sub'ektiga uning sof aktivlaridagi proportsional ulushini boshqa tomonga etkazib berish majburiyatini yuklaydigan hamda 16V va 16G-bandlarga muvofiq ulushli instrumentlar sifatida tasniflangan instrumentlarni, yoki tadbirkorlik sub'ektining o'z ulushli instrumentlarini kelgusida olish yoki etkazib berish bo'yicha shartnomalar bo'lgan instrumentlarni o'z ichiga olmaydi.

Milliy va xalqaro hisob standartdagi moliyaviy aktiv turlari taqqoslanganda bir qator farqlar mavjudligi ayon bo'lmoqda. Farqlar asosan nodirativ instrumentlar, derivativ instrumentlar, ulushli instrumentlar kabi moliyaviy aktivlar turidan kelib chiqmoqda. Bunday aktiv turlari hali milliy hisob tizimimizda to'liq qo'llanilgani yo'q.

Demak, hisob tizimimizda moliyaviy aktivlarni nazariy asoslarini xalqaro standartlar darajasi bilan uyg'unlashishini ta'minlash uchun mavjud farqlarni hosil qilgan moliyaviy aktiv turlarini keng ko'lamda o'rganib uning milliy amaliyotga tatbiq etish kerak ekan. Bu holat ham moliyaviy aktivlar tasnifini kelgusida yanada takomillashtirishga sabab bo'luvchi voqeliklardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korxonalar moliyaviy aktivlar hisobi va tahlilining tasnifiy asoslarini tadqiq etish va uni takomillashtirish, avvalo ichki foydalanuvchilar uchun axborotlar makonini kengaytirib, sifatli axborotlarni shakllantirib berishga, shuningdek milliy iqtisodiyotda moliyaviy aktivlari hisobi va tahlilini globallashtirish ta'sirida rivojlanayotgan iqtisodiy munosabatlar hamda xalqaro bozor qatnashchilari talablariga moslashtirish uchun xizmat qiladi. Bu harakatni muvafaqqiyatli amalga oshirish esa ichki hamda tashqi moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarga qulay hamda tushunarli axborot muhiti yaratish yo'lidagi muhim tadbirlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2020 yil 24 fevral, №PQ-4611: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

32-sonli BHXS "Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni taqdim etish"

Donald E. Kieso, Jtrry J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ACCOUNTING. John Wiley & Sons, USA. 2004. 1331 r.

B.Xakimov Moliyaviy hisobotning kontseptual asosi. Bozor, Pul va Kredit.

//2010. №09. 52-55 b.

B.F.Bo'ronov. Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobi va hisobotini xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish. Monografiya. SamDChTI nashr-matbaa markazi. 2020 yil. 154 bet.

Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. Экономика и социум, (1), 102-105.

Холмирзаев, У. А. (2021, October). ҚИСКА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 396-399).

Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). IMPROVING CASH ACCOUNTING AND ANALYSIS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES. International Finance and Accounting, 2020(1), 18.

Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.

Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. Dear Academicians & Research Scholars, 55.

Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. Мировая наука, (2), 24-27.

	Shayimova. S.	
164	ПОСЛОВИЦЫ В ЖИЗНИ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА Набиходжаева Нигора Уткуровна	902
165	УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ЎҚУВЧИЛАРИДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Абдуллоев Шамшод Туйчиевич	906
166	SINFDAN TASHQARI O'QISH UCHUN KITOB TANLASH TAMOIYILLARI Saksanova Nasiba Norbekovna	909
167	ЗАМОНАВИЙ НАВИГАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ Мадалимов Элбек Фархотович	914
168	EDUCATE YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM ANCESTORS IN THE PROCESS Davronov Ulug'bek Mirzadavlatovich	919
169	ONA TILI DARSLARINI TASHKIL QILISH TAMOIYILLARI XUSUSIDA Ziyadullayeva Shoiray Saydullo qizi	922
170	BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLAR VA ULARDAN DARS JARAYONI FOYDALANISH Qahhorova Mahbuba Barakatollayevna	925
171	TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Xodjayeva Dilrabo Xaydarqulovna	928
172	BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TADQIQOTLARINING AHAMIYATI Egamova Shahlo Rustamqulovna	931
173	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDAGI MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI Djumanova Bashorat Muxamammadiyevna	934
174	O'QUVCHILARIDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING REFLEKSIV MODELI Xudayberdiyev Oybek Gafurovich	937
175	MOLIYAVIY AKTIVLARNI IQTISODIY MAZMUNIGA KO'RA TASNIFLASHNI TAKOMILLASHTIRISH Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich	945
176	ИЛМ-ФАННИНГ РИВОЖЛАНИШИ АСОСИДА ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА	950



**TA'LIM FIDOYILARI RESPUBLIKA JURNALIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNOVATSION
YONDASHUVLAR MUAMMO VA YECHIMLAR MAVZUSIDA
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASIDA**

Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich

MOLIYAVIY AKTIVLARNI IQTISODIY MAZMUNIGA KO'RA TASNIFLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

NOMLI MAQOLASI BILAN QATNASHGANI UCHUN TAQDIRLANDI



О. А. ЧЕРНЫШОВА
Генеральный директор ИУСЭР



HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA
Research and publications ilmiy
nashrlar markazi rahbari





GUVOHNOMA

Kolmizayev Uluqbek
Abdulla xizovich

"RESEARCH AND PUBLICATIONS"

ilmiy nashrlar markazi

Ilmiy kengashining

2022-yil 26-avgust oyining

5-sonli qaroriga asosan

tashkil etilgan xalqaro

konferensiya doirasida

"TA'LIM FIDOYISI"

nomli esdalik nishoni

bilan taqdirlanadi.

Tashkiliy qo'mita
rahbari:



A. Hakimova

